



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil  
yanvar- sentabr*



## XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Xorazm viloyatining 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **1947,1** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **22,9** ming kishiga yoki **1,2 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **644,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **33,1 %**), qishloq aholisi soni **1303,0** ming kishi (**66,9 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**1 947,1** *ming kishi*

### Tabiiy o'sish

**+24,0** *ming kishi*

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar




**33,1%**

#### Qishloq



**66,9%**

### Aholining tabiiy harakati, *ming kishi*




Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-sentabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2022- yil 1- oktabr holatiga



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **31,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **59,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2022- yil 1- yanvar holatiga




2022- yil 1- yanvar holatiga Xorazm viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **103,4 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **30,3 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **95,8 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **34,1 ming kishini** tashkil etgan.

## Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga




2022-yilning 1-yanvar holatiga Xorazm viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **72,7** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **70,6** yoshga, ayollar uchun esa **74,8** yoshga teng. Shahar va qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi bir xil, ya'ni **72,6** yoshni tashkil etgan.

**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**
*2022- yil 1- oktabr holatiga*

**Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi**
*1- oktabr holatiga, ming kishi*

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	1914,5	1947,1	101,7
<i>shaharlar :</i>			
Urganch sh.	146,1	149,0	102,0
Xiva sh.	94,8	96,3	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	168,6	171,6	101,8
Gurlan	151,1	153,7	101,7
Qo'shko'pir	175,1	177,9	101,6
Urganch	204,4	208,2	101,9
Hazorasp	197,9	201,1	101,6
Tuproqqal'a	56,1	57,5	102,5
Xonqa	190,6	193,9	101,7
Xiva	148,9	151,1	101,5
Shovot	173,5	176,2	101,6
Yangiariq	118,4	120,2	101,5
Yangibozor	89,0	90,4	101,6

## Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi

2022- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Viloyatda 2022- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **322** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **6** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **316** kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **5143** kishi, Xiva shahrida **2826** kishi, Hazorasp tumanida **1510** kishi, Urganch tumanida **467** kishi, Xonqa tumanida **448** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida **30** kishi, Yangibozor tumanida **264** kishi, Yangiariq tumanida **298** kishi, Qo'shko'pir tumanida **330** kishini tashkil etgan.

## Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




### QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




### Tug'ilganlarning taqsimlanishi


#### Yanvar- mart



#### Yanvar- iyun



#### Yanvar- sentabr



### Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

Hazorasp	3713	24,8 ‰
Urganch sh.	3151	28,5 ‰
Urganch	3073	19,9 ‰
Xonqa	3045	21,1 ‰
Bog'ot	2910	22,8 ‰
Shovot	2669	20,4 ‰
Qo'shko'pir	2667	20,2 ‰
Gurlan	2368	20,7 ‰
Xiva	2096	18,6 ‰
Yangiariq	1716	19,2 ‰
Xiva sh.	1484	20,7 ‰
Yangibozor	1383	20,6 ‰
Tuproqqal'a	887	20,8 ‰




2022- yil yanvar- sentabr oylarida **31,2** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,5** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,4** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **21,1** promilleni tashkil etgan).

### Tugʻilishlarning chaqaloqlar soni boʻyicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar- sentabr

3 nafar va undan ortiq egizak  
**21 ta**

2 nafar egizak  
**712 ta**



1 nafar  
**30429 ta**

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tugʻilishlarda 1 nafar va egizak tugʻilgan chaqaloqlar soni boʻyicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega boʻlganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **97,7%**
- 2 nafar – **2,2%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1%**

### Chaqaloqlarning ota- onasi yoshi boʻyicha taqsimlanishi

#### Otaning yoshi

6,0%  
40 yosh va undan kattalar

83,6%  
25-39 yoshdagilar

10,4%  
25 yoshgacha




#### Onaning yoshi

1,0%  
40 yosh va undan kattalar






61,1%  
25-39 yoshdagilar

37,9%  
25 yoshgacha



2022- yil yanvar- sentabr oylarida tugʻilgan chaqaloqlar otasining yoshi boʻyicha **10,4 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **83,6 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **6,0 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga toʻgʻri kelgan. Shuningdek, tugʻilgan chaqaloqlar onasining yoshi boʻyicha **37,9 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **61,1 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,0 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat boʻlgan.




**VAFOT ETGANLAR**

**Vafot etganlarning taqsimlanishi**

**Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,2** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,1** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **4,9** promille bo'lgan).


**O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi***2022- yil yanvar-sentabr, kishi*

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **43,0 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,4 %** i – o‘simtalardan, **10,9 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,0 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,4 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,1 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **26,2 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

**O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi***2022- yil yanvar-sentabr*

2022- yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **17,7 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **24,8 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **57,5 %** ni tashkil etgan.

## QAYD ETILGAN NIKOHLAR



## Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

Hazorasp	1 195	8,0 ‰
Xonqa	1 155	8,0 ‰
Bog'ot	1 146	9,0 ‰
Urganch	1118	7,2 ‰
Qo'shko'pir	955	7,2 ‰
Urganch sh.	912	8,2 ‰
Shovot	890	6,8 ‰
Gurlan	845	7,4 ‰
Xiva	727	6,5 ‰
Yangiariq	701	7,8 ‰
Yangibozor	550	8,2 ‰
Xiva sh.	503	7,0 ‰
Tuproqqal'a	342	8,0 ‰

## Nikohlarning taqsimlanishi

### Yanvar- mart

2021	2022
4 692	5 248
93,4%	111,8%

### Yanvar- iyun

2021	2022
7 714	8 074
128,6%	104,7%


### Yanvar- sentabr

2021	2022
10 551	11 039
126,5%	104,8%



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **11,0** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,6** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **7,4** promille bo'lgan).

## NIKOHDAN AJRALISHLAR



■ Ajrimlar, ming birlik    ● O'sish sur'ati, % da


## Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik


Wiloyat	Soni	Koeffitsiyenti
Urganch sh.	209	1,9 ‰
Urganch	165	1,1 ‰
Shovot	156	1,2 ‰
Hazorasp	153	1,0 ‰
Qo'shko'pir	144	1,1 ‰
Xonqa	103	0,7 ‰
Bog'ot	100	0,8 ‰
Yangiariq	99	1,1 ‰
Gurlan	95	0,8 ‰
Yangibozor	77	1,1 ‰
Xiva	76	0,7 ‰
Xiva sh.	70	1,0 ‰
Tuproqqal'a	64	1,5 ‰

## Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi


### Yanvar- mart




### Yanvar- iyun




### Yanvar- sentabr



2022- yil yanvar- sentabr oylarida **1,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar- sentabr oylarida **0,8** promille bo'lgan).

**Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi***2022- yil yanvar- sentabr*

2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **26,4 %** i farzandsiz, **45,1 %** i bitta farzand bilan va **28,5 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

**Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti**

Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **1511** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan

**AHOLI MIGRATSIYASI**
*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*


2022- yil yanvar- sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 5 168 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 6 260 kishini, migratsiya saldosi minus 1092 kishini tashkil etdi. (2021- yil yanvar- sentabr oylarida minus 1900 kishini tashkil etgan).

**Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni**
*(kishi)*


	2021 - yil yanvar- sentabr			2022- yil yanvar- sentabr		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib ketganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	8146	10046	-1900	5168	6260	-1092
<i>shaharlar:</i>						
Urganch sh.	1595	2047	-452	1409	1392	17
Xiva sh.	769	427	342	275	363	-88
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	210	352	-142	132	239	-107
Gurlan	200	430	-230	135	267	-132
Qo'shko'pir	276	681	-405	203	443	-240
Urganch	1910	1186	724	1307	946	361
Hazorasp	151	1783	-1632	182	735	-553
Tuproqqal'a	1576	431	1145	496	230	266
Xonqa	278	544	-266	144	412	-268
Xiva	527	980	-453	282	457	-175
Shovot	246	574	-328	184	335	-151
Yangiariq	225	304	-79	245	239	6
Yangibozor	183	307	-124	174	202	-28

## JAMI KO'CHIB KELGANLAR




### Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi


#### Yanvar-mart



#### Yanvar-iyun




#### Yanvar-sentabr



### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti


2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Urganch sh.	1 409	12,7 ‰
Urganch	1 307	8,4 ‰
Tuproqqal'a	496	11,6 ‰
Xiva	282	2,5 ‰
Xiva sh.	275	3,8 ‰
Yangiariq	245	2,7 ‰
Qo'shko'pir	203	1,5 ‰
Shovot	184	1,4 ‰
Hazorasp	182	1,2 ‰
Yangibozor	174	2,6 ‰
Xonqa	144	1,0 ‰
Gurlan	135	1,2 ‰
Bog'ot	132	1,0 ‰



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,2** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **3,6** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **5,7** promille bo'lgan).

## JAMI KO'CHIB KETGANLAR



■ Ko'chib ketganlar, ming kishi — O'sish sur'ati, % da


## Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi


Urganch sh.	1 392	12,6 ‰
Urganch	946	6,1 ‰
Hazorasp	735	4,9 ‰
Xiva	457	4,1 ‰
Qo'shko'pir	443	3,3 ‰
Xonqa	412	2,9 ‰
Xiva sh.	363	5,1 ‰
Shovot	335	2,6 ‰
Gurlan	267	2,3 ‰
Yangiariq	239	2,7 ‰
Bog'ot	239	1,9 ‰
Tuproqqal'a	230	5,4 ‰
Yangibozor	202	3,0 ‰

## Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi


### Yanvar-mart



### Yanvar-iyun



### Yanvar-sentabr



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **6,3** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **7,1** promille bo'lgan).



## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 62 224-65-08*